

MAKTABGACHA YOSHDAGI YOSHDAGI BOLALARGA XORJIY TIL (INGLIZ TILI) GA O'RGATISHDA "QUVNOQ BALIQCHALAR" DIDAKTIK O'YININI QO'LLASH SAMARASI

S. Maxmudova¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada, maktabgacha yoshdagi 6-7 yoshli bolalarni xorijiy tillarga o'rgatishda samara koeffitsienti oshirish yo'llari, maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy til o'rgatishda didaktik o'yinlarni qo'llash uchun ularni yaratish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetetsiyalarni oshirish, amaliy ko'nikmalarni egallash usuli yoritilgan.





Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, ingliz tili, kasbiy kompetentlik, didaktik o'yinlar

doi: <https://doi.org/10.2024/x0q1yq52>

Jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini samarali bajarish zarurati, hamda, maktab davrida chet tillarini o'qitish natijalari umumiy ko'rsatgichlarini sifatli oshirish, xorijiy tillar o'rganishni tashkil etishda yangi yondashuvlarni izlashni rag'batlantiradi. Shu munosabat bilan so'nggi yillarda chet tillarini erta o'zlashtirish g'oyalari paydo bo'la boshladi, bu erda atrof-muhitning o'zi, yosh xususiyatlari va sharoitlar boshqa tilda qiziqarli muloqotni tashkil qilish imkonini beradi. "Takomillashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun joriy etilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining, 3-ilovasi, namunaviy o'quv rejasida keltirilganidek, katta (5 yoshdan 6 yoshgacha) va maktabga tayyorlov (6 yoshdan 7 yoshgacha) guruhdagi bolalar faoliyati turlarida, mustaqil faoliyat sifatida xorijiy tilga o'rgatish davlat talablari darajasiga ko'tirilgan. Albatta, xorijiy tilni o'rgatishdek murakkab jarayonni amalga oshirish uchun, hozirgi kunning pedagoglaridan yuqori darajada kasbiy kompetentlik va mahorat talab etiladi.

Xorijiy til o'rganishni boshlash uchun qulay davr 6-7 yil hisoblanadi. Bu yosh davrda bolalar lingvistik hodisalarga eng sezgir bo'lgan va ongsiz ravishda katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtira oladigan davr hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolani xorijiy tillarni o'zlashtirishga qiziqishini kamol toptirish uchun, ta'lim-tarbiya jarayonini albatta o'yin faoliyatida tashkil etish samara koeffitsienti oshiradi. Didaktik o'yinlarni qo'llash orqali, bola bir vaqtning o'zida o'ynaydigan va yangi bilimlarni o'zlashtiradigan o'quv faoliyatining bir turidir. Didaktik o'yin pedagogik amaliyot va nazariyaning asosiy usullaridan biri bo'lib, bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

¹Maxmudova Sevara Asatilla qizi, Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi

	
1- rasm “Quvnoq baliqchalar” didaktik o’yini	2- rasm “Quvnoq baliqchalar” didaktik o’yini asosi.
	
3- rasm “Baliqchalar”	4- rasm Tayyor bo’lak ko’rinishi

Maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy til ko’nikmalarini o’zlashtirishda, avvalambor pedagogning nutqiy namunasi va o’rgatayotgan xorijiy tilning grammatik va fonematik o’ziga xos xussiyatlarni mukammal tarzda o’zlashtirgani hisoblanadi. Bolalarga ingliz tili o’rgatishda lug’at ishi asosiy o’rinda turadi. Bolaga narsa-buyumlar nomlari, sonlar, fazoviy mo’ljall tushunchalari (chap va o’ng, yuqorida, o’rtada, pastda), ranglarni inglizda o’rgatishning samarali usullaridan biri “Quvnoq baliqchalar” nomli didaktik o’yini (1-rasmga qarang) hisoblanadi.

Mazkur didaktik o’yin yasaliishi tartibi va ketma-ketligi quyidagicha:

- Didaktik o’yinning asosi ikki ustundan iborat, 6 dona A4 format qog’ozlarning bir- biri bilan elimlangan (elimli tasma orqali), laminatsiyalangan, och yashil rangli qog’ozlar (2-rasmga qarang);

- “Baliqchalar” A 5 formatda “tana” qismi bo’shliqdan iborat 6 dona (3-rasmga qarang);

- Didaktik o’yin asosining har-bir bo’lagi markaziga “baliqchalar” elimli tasma orqali, ikki yonidan va pastki qismidan elimlanadi. (4-rasmga qarang);

- Rangli kartochkalar

- Raqamli kartochkalar

Tarbiyachi 6 ta baliqning siluetlarida qorin qismi kesilgan tasviri tushirilgan konvertli plakatni (1rasm) bolalarga namoish qiladi, unda:

- Qatorlarni bu 1-qator, bu 2-qator, bu 3-qator deb ko’rsatadi, ustunchalarni ko’rsatadi bu – 1- ustun, bu 2-chi ustun deb ko’rsatadi. Bu o’ng tomon, bu chap tomon. Bu o’ng tomonning tepa qismi, bu o’ng tomonni pastki qismi kabi tushunchalarni kiritadi. Bolalar navbatma-navbat konvertlarga ranglarni qo’yib chiqishadi. Qo’yilgan ranglar nomlanadi, qatorlar, ustunchalar, tomonlar to’g’risida ma’lumotlar mustahkamlanadi.

Savollarning 1 varianti. Tarbiyachi qizil rangli kartochkani olib, bolalardan uning rangini so'raydi. Uni 1- qator 1-ustuncha konvertiga solishni aytadi. Zarg'aldoq rangli kartochkani olib, bolalardan uning rangini so'raydi. Uni 2-qator 1-ustun konvertiga solishni aytadi. Yashil rangli kartochkani olib, bolalardan uning rangini so'raydi. Uni 3- qator 1- ustuncha konvertiga solishni aytadi. Shu tarzda xamma konvertlarga barcha ranglar joylashtiriladi.

Savollarning 2 varianti. Tarbiyachi barcha rangli kartochkalarni olib, qizil rangli kartochkani ko'rsatadi va uni qayerga joylashtirganini so'raydi. Bolalar esa, qizil rangli kartochkani qayerga joylashtirganini aytishlari kerak.

Bolalar javobi shunday bo'lishi mumkin: Qizil rangli baliqcha 2- ustun, 3-qatorda joylashgan, yoki o'ng tomonning pastki qismida joylashgan deb javob beradilar. Keyingi variantlarda "oldida", "orqada", "tepada", "yonida" kabi iboralar bolalarning faol nutqiga kiritiladi. Masalan: qora rangli baliqcha qizil baliqchani orqasida joylashgan, ko'k rangli baliqcha sariq rangli baliqchani pastida joylashgan va x.k

Bu o'yinning variantlari juda xilma-xil bo'lishi mumkin.

Jadval №1.

Xorijiy tildagi o'yinlarning ta'limiy maqsadi

No	O'yin nomlanishi	Ta'limiy maqsad
1.	"Rangli baliqchalar" "Colored fish"	Ranglar nomini xorijiy tilda (<i>red, orange, yellow, green, light blue, blue, violet</i>) talaffuz qilish orqali tovush madaniyati, lug'at zahirasi kengaytirish.
2.	"Sonli balikchalar" "Counting fish"	Sonli katochkalarni "balikcha" larga joylashtirish hamda talaffuz qilish orqali natural sonlar haqida tushuncha berish (<i>one, two, three, four, five six, seven, eight, nine, ten</i>).
3.	"O'ng-Chap" "Right side, Left side"	O'ng va chap taraf (<i>Right side, left side</i>) haqida tushunchalarni xorijiy tilda shakllantirish.
4.	"Qaerda joylashgan ?" "Where is ?"	Fazoviy tushunchalarni (<i>Upper, middle, buttom</i>) xorijiy tilda talaffuz qilish hamda faol nutqida ishtirok etishni shakllantirish.
5.	"Keyingisi nima ?" "What's next?"	Tahliliy, amaliy, tizimli fikrlashni shakllantirish (<i>yellow after red, green after orange.....</i>)
6.	"Oldingisi nima ?" "What's before?"	Tahliliy, amaliy, tizimli fikrlashni shakllantirish (<i>red before yellow, orange before green...</i>)

Xulosa

Dunyoning globallashuv va integratsiya jarayonida xayotimizning barcha soxalarida chet tillarga bo'dgan extiyoj keskin o'sib kelmoqda. Chet tillarni o'rganish bolaning tafakkurini, xotirasini, e'tiborini, tasavvurini rivojlantiradi va umumiy nutq rivojlanishini yaxshilaydi. Tilni erta o'qitish bolaning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi - bolalar rivojlanish sura'ti oshadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tillarga o'rgatish didaktik masallar asosiy tamoyili bu- o'yin faoliyatidir. O'yin fikrlash jarayonlarini faollashtiradi va chet tilini o'rganish motivatsiyasini oshiradi. Chet el uslubidagi lug'atni o'rganish bir necha bosqichlarni o'z ichiga olgan jarayondir. Birinchi bosqichda yangi so'z

kiritiladi. Keyingi bosqichda bolajonlar o'xshash nutqiy vaziyatlarda leksik nutqiy bog'lanishlar yaratishga mashq qiladilar. O'rganish natijasi bolalarning dinamik leksik nutqiy aloqalarni yaratish qobiliyatidir, ya'ni muloqotda yangi so'zlardan erkin foydalana oladi. Chet tillarni maktabgacha yoshdan o'rganish tendentsiyasi davlat talablari darajasiga ko'tarilgani kelajakka ishonch boqish imkonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T.: BMT Bolalar jamg'armasi (YuNISEF), 2018 y.
- [2]. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. T.: 2022 y.
- [3]. F. R. Qodirova, D. M. Maxmudova, O. A. Maxmudova, Xo'jamatova X. M. "Til va nutq" rivojlantirish markazidagi ta'lim faoliyatni rejalashtirish. Pedagoglar uchun o'quv qo'llanma. Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", / T.: 2023. 252 bet.
- [4]. D.R Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. "Barkamol fayz media" nashriyoti. Toshkent 2018
- [5]. O.Maxmudova. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy vazifalarni ta'lim tarbiyaviy ahamiyati va ularni amalga oshirish yo'llari. International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences Ipoh, Malaysia. Page September 30th 2022 conferencezone.org
- [6]. O.A. Maxmudova. Формирование культурно-гигиенических навыков у детей дошкольного возраста. Школа будущего №4 М.:2019 190-201
- [7]. G.E Djanpiesova, S.A. Maxmudova. Технологии интеллектуального развития дошкольников в соответствии с современными требованиями. Материалы международной научно-практической онлайн конференции «Наследие А.Кастеева в изобразительном искусстве», 3 декабря 2020 г
- [8]. G.E Djanpiesova, S.A. Maxmudova. XLIX International correspondence scientific and practical conference «European research: innovation in science, education and technology» February 25-26, 2019 London, United Kingdom.
- [9]. Шишкова И.А., Вербицкая М.Е. Английский для самых маленьких. Под редакцией Н.А.Бонк. М., 2006.;
- [10]. Шишкова И.А., Вербицкая М.Е. Английский для малышей 4-6 лет. Под редакцией Н.А.Бонк. М., 2001.